

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba-yoshlari  
o‘rtasida “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzusidagi videoroliklar  
tanlovi**

**Nizom**

1. Mazkur tanlov O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talaba yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladi.
2. Mazkur nizom talaba yoshlar o‘rtasida “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzusida tanlovini tashkil etish tartibini belgilaydi.

**I. Umumiy qoidalar:**

3. Tanlovda universitet talaba-yoshlar va magistrantlar ishtirok etadi.
4. Tanlovni tashkil etish, o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tuziladi.
5. Tanlovda ishtirok etish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi, ishtirokchilar soni chegaralanmagan.

**II. Tanlovni o‘tkazishning maqsadi va vazifalari**

6. “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzusidagi tanlov universitet talaba yoshlarining korrupsiyasiz hayotga tayyorlash, yurtimizda korrrupsiyaga qarshi kurash jarayonlarida faol ishtirok etishlarini taminlash maqsadida hamda talaba yoshlarni bo‘s sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun o‘tkaziladi.

7. Tanlov vazifalari quyidagilardan iborat:

Yoshlarni kelajakda korrupsiyasiz hayotga tayyorlash, yurtimizda kelajak yosh avlod orasida korrupsiyanı oldini olishni ta’minlash;

Yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, o‘z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste’todli yoshlarni har tomonlama rivojlantirish;

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatli intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vatanga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash.

**III. Tanlovda ishtirok etish va o‘tkazish:**

8. “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzusidagi tanlov universitetdagi barcha talaba yoshlar o‘rtasida o‘tkaziladi.
9. “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” mavzusidagi tanlov 2023-yil 27-noyabrdan 2-dekabr kunlari o‘tkaziladi.

10. Tanlov ishtirokchilari o‘zлari tayyorlagan materiallarni @uzdjtsu\_mx telegram manziliga jo‘natiladi.

#### **IV. Tanlov shartlari va baholash me’zonlari**

11. “Korrupsiya taraqqiyot kushandası” tanlovida ishtirokchilar mavzu doirasida videorolik (she’rlar, qo’shiq, qisqa metrajli videolar) tayyorlashadi.

12. “Korrupsiya taraqqiyot kushandası” tanlovida taqdim etilgan she’rlar, qo’shiqlar, videolarni mazmuni sifati, motivatsion salohiyatga ega ekanligi;

13. “Korrupsiya taraqqiyot kushandası” tanlovida taqdim etilgan (she’rlar, qo’shiqlar, videolar) 1-5 daqiqa oralig‘ida bo‘lishi shart muallif(lar)ning ismi-sharifi, fakultet nomi va guruh raqami to‘liq bo‘lishi kerak.

14. “Korrupsiya taraqqiyot kushandası” tanlovida taqdim etilgan materiallari tuzilgan tashkiliy qo‘mita tomonidan baholanadi.

#### **V. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

15. “Korrupsiya taraqqiyot kushandası” mavzusidagi vidioroliklar tanlovi g‘oliblari tashkiliy qo‘mita tomonidan tanlovlар tugaganidan so‘ng 3 kun muddatda saralanadi.

16. Tanlov g‘oliblari talabalarini rag‘batlantirish jamg‘armasi tomonidan taqdirlanadi;

- Birinchi o‘ringa - 1 000 000 (bir million) so‘m;
- Ikkinci o‘ringa - 800 000 (sakkiz yuz ming) so‘m;
- Uchinchi o‘ringa - 500 000 (besh yuz ming) so‘m beriladi.

#### **VI. Yakuniy qoidalar**

17. Tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha xarajatlar universitet va homiylik mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda qoplanadi.